

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

JAHON ADIBLARINING IBN SINO HAQIDAGI ADABIY ERTAKLARIDA REALIZM VA BADIY TO‘QIMA

Darmonoy O‘RAYEVA
filologiya fanlari doktori, professor
Buxoro davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290649>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxorolik mashhur tabib Abu Ali ibn Sino haqida eron, turk va tatar adabiyotida yaratilgan adabiy ertak, qissa (povest) janridagi asarlarning g‘oyaviy mazmuni, badiiyati, ularda ulug‘ hakim obrazini gavdalandirishda hayot haqiqati va badiiy to‘qimaning o‘rni, ko‘lami xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jahon adiblari, afsona, ertak, adabiy ertak, qissa, Abu Ali ibn Sino, Buxoro.

Абстракт. В данной статье рассматривается идейное содержание и художественность произведений в жанрах литературных сказок и рассказов, созданный в иранской, турецкой и татарской литературе о знаменитом бухарском враче Абу Али ибн Сине, роль и масштабы реальности жизни и художественной фактуры в воплощении в них образа великого лекаря.

Ключевые слова: мировые писатели, легенда, сказка, литературная сказка, повесть, Абу Али ибн Сина, Бухара.

Abstract. This article discusses the ideological content and artistry of works in the genres of literary fairy tales, short stories (narratives) created in Iranian, Turkish and Tatar literature about the famous Bukhara doctor Abu Ali ibn Sina, the role and scope of the reality of life and artistic texture in embodying the image of the great physician in them.

Key words: world writers, myth, fairy tale, literary tale, short story, Avicenna, Bukhara.

Abu Ali ibn Sino jahonda keng shuhrat qozongan hakimdir. Uning to‘g‘risida folklorda juda ko‘p afsona va rivoyatlar yaratilgan bo‘lsa, shoiru yozuvchilar u haqda turli janrlarda badiiy asarlar yozganlar. Ibn Sino haqidagi hikoyalar turli davrlarda yaratilib, Tehron, Istambul, Qozon, Toshkent va boshqa joylarda kitob shaklida nashr etilgan. Yaratilgan bu kabi asarlarda Ibn Sino kishilarni bemorlikdan, o‘limdan, xaroblik va jabr-sitamdan qutqarishga intilgan ulug‘ hakim, olim, donishmand xalqparvar va adolatsizlikka qarshi kurashgan dovyurak isyonkor sifatida tasvirlanadi. Uning nomi bilan bog‘liq “Hayvonga qalqon”, “Ilon zahar solgan sut”, “Men ho‘kizman”, “Sezgirlik”, “Uzuk”, “Yigitning kasali”, “Falaj davosi” va boshqa og‘zaki hikoyalarda hakim sifatidagi mahorati, kuchli tibbiy bilimi ulug‘langan.

Darhaqiqat, Ibn Sino 17 yoshida mohir tabib sifatida shuhrat qozongan. U yuzga yaqin kitoblar muallifidir. Ulardan “Shifo kitobi”, “Tib qonunlari”, “Bilimlar kitobi” va boshqalar butun dunyoga mashhur. O‘z davridayoq Ibn Sino “Shayx ur-raisi”

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

(“donishmandlar sardori”, allomalar boshlig‘i”), “Sharaf ul-mulk” (mamlakatning sharafi), “hujjat alhaqq” (“rostlikka dalil”), “Hakim al-vazir” (tadbirkor vazir”) neomlari bilan ulug‘langan [5]. Ammo ba'zan jahon adiblari ijodida Ibn Sino ulug‘ olim va hakimgina emas, sehrigar, jodugar, firibgar, ayyor sifatida ham gavdalantirilgan. Xudo bergan dard va o‘limga qarshi boruvchi dinsiz, dahriy qiyofasida ayblangan. Bunday holat Azizning 1873 yilda Istambulda bosilgan “Muhayyolot (Qissai Abu Ali Sino)” va Ziyovuddin Said Yahyoning “Ganjinai hikmat (Hikoyai Abu Ali Ibn Sino)” nomli avantyuristik roman tarzidagi asarlarida ko‘rinadi. Aslida Ibn Sinoga qarshi xuruj va ig‘volar uning hayotlik davridanoq boshlangan.

Ziyovuddin Said Yahyo o‘z davrida bilimdon kishilardan buyuk Abu Ali ibn Sino qilgan hayratlanarli ishlar haqida eshitgan hikoya va rivoyatlari taassurotlari asosida “Ganjinai hikmat” kitobini yaratgan. Undan oldin Hasan Madhi u haqda qissa yozib, uni turk sultoni Murod IIIga sovg‘a qiladi, ammo sulton Madhining bu sovg‘asini rad etgan. Ziyovuddin Said Yahyo esa Madhining ushbu kitobini topib, sinchiklab o‘rgangan. Shundan so‘ng u Madhi ulug‘ hakim nomi bilan bog‘liq mavjud afsona va rivoyatlarni qayta ishlash bilan unchalik shug‘ullanmagan, balki ularni o‘zi o‘ylab topgan, degan xulosaga kelgan.

Ziyoviddin Said Yahyo Abu Ali Sino hayotiga oid mutaxassislarning maslahatlariga, tarixiy faktlarga tayanib ish yuritgan. U o‘z kitobini Iskandarda boshlab, Lodinda yakunlagan. Uning Abu Ali Sino (Avitsenna)ga bag‘ishlangan “Ganjinai hikmat” kitobi hijriy 1281 yilda Qozon shahrida nashr etilgan.

Mashhur tatar yozuvchisi Qayum Nosiriy xalq og‘zaki ijodi hamda o‘zigacha yaratilgan ayrim yozma manbalarning materiallari asosida “Abugalisina” asarini bitdi. Aslida Abu Ali ibn Sino haqidagi asarlar Qozonda bosmaxona ochilishidan ancha oldin, qo‘lda yozilgan hikoyalar sifatida qo‘ldan-qo‘lga tarqalgan va tatar xalqi orasida keng tarqalib, mashhurlik kasb etgan. Biroq ularning yozilishida arab va fors so‘zlari ko‘p bo‘lgani uchun keng omma o‘qib tushunishida qiyinchilik yuz bergan. Shuni inobatga olib, Qayum Nosiriy o‘z oldiga bu matnlarni oddiy odamlar uchun tushunarli va sodda tilda yetkazishni ko‘zlab, “Abugalisina” asarini adabiy ertak shaklida yaratgan. Bu haqda uning o‘zi: “Men bu kitobni Rossiyada yashovchi musulmonlar uchun tushunarli tilga tarjima qilishni o‘z zimmamga oldim”, - deb yozgan.

Ibn Sino hayoti va faoliyati haqidagi ertak tatar tilida ikki jildlik asar ko‘rinishida yaratilgan. Uning birinchi nashri 1881 yilda nashr etilgan. U Ziyovuddin

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Said YAhyoning mashhur “Ganjinai hikmat” kitobini qayta ishlash asosida bunyodga kelgan. Kitobda Ibn Sinoning ilmiy tadqiqot hamda badiiy adabiyotga oid ijod namunalari o‘rin olgan. Kitobning boshlanishida filologiya fanlari doktori, professor M.Gaynullinning kirish maqolasi berilgan.

Qayum Nosiriy folklarga juda katta qiziqish bilan yondashgan. Xalq ertak va naqlari asosida o‘zining ko‘plab adabiy ertak va masallarini yaratgan [Nosiriy. 1]. Tatar tilini ertaklar orqali o‘rgatishni ko‘zda tutib, xalq ertaklari asosida o‘z adabiy ertaklarini yaratgan Qayum Nosiriy amaliy mashg‘ulotlarini tatar tilidagi ertaklar misolida olib borgan. Shu asosda o‘quvchilarni tatar xalqi madaniyati va tili bilan yaqindan tanishtirishni ko‘zda tutgan Qayum Nosiriy aytib bergan tatar ertaklarida, shuningdek, uning mashhur “Abugalisina” asarida [Nosiriy; 2] Abu Ali ibn Sino haqida hikoya qilinadi.

Asar qahramonining prototipi buxorolik mashhur tabib, faylasuf olim, huquqshunos, shoir Abu Ali Sinodir. Uni jahon ahli Avitsenna nomi bilan taniydi. Ammo asarda shu kabi realliklar barobaida qator badiiy to‘qima ham uchraydi. Masalan, Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Biroq, asarda u Buxoro davlatining Shodjeg qishlog‘ida tug‘ilgan deb ko‘rsatiladi. Yana u Abulhoris bilan egizak aka-ukalar sifatida tasvirlangan. Tarixiy manbalarda esa ularning otasiga ikki o‘g‘il bo‘lgani, Husayn ulardan kattasi bo‘lib, Mahmud ismli ukasi bilan birga ulg‘aygani aytiladi, ammo ular egizak deb ko‘rsatilmaydi. Ular 373 (uch yuz yetmish uchinchi) yili tug‘ilgani aytiladi. Yana Sino hijriy 454 (to‘rt yuz ellik to‘rtinchi) yili Samarqandda dafn etilgan deyiladiki, bularni to‘qima deb qarash o‘rinlidir. Shuningdek, asarda olimning nomi Abu Ali Sino tarzida keltirilgan. O‘zbek manbalarida esa uning nomi Abu Ali ibn Sino tarzida berilib, Abdulloh ismli kishining farzandi bo‘lganligi aytiladi. Olimning to‘liq ismi Abu Ali Alhusayn ibn Abdulloh ibn Alhasan ibn Ali ekani, 980 yilda Buxoroning Afsona qishlog‘ida tug‘ilib, 1037 yilda Eronning Hamadon shahrida vafot etgani ko‘rsatiladi [5].

Rivoyatlarga ko‘ra, maktabdosh do‘stlari ibn Sinoning nechog‘lik zukko va hushyorligini sinash uchun ko‘rpa-to‘shagi ostiga bir varaq qog‘oz qo‘yishibdi. U shunda “Shift pastladimi yoki pol balandlashdimi, tushunmayapman, lekin nimadir o‘zgardi” degan. Bu o‘rinda olimning yoshlikdanoq o‘ta sinchkov, aqlli va hushyor bo‘lgani mubolag‘ali bayon etilgan.

“Abugalisina” asarida hikoya qilinishicha, aka-uka kelishib, Dovud payg‘ambar zamonlarida yashagan Pifagor (Fisagouris)ning “Buyuk bilimlar kitobi” kabi qimmatli asarlari to‘planib yashiringan, sehrliligi yiliga faqat bir marta

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ochiladigan, lekin faqat har bir kishi qisqa uch soat davomida u yerda bo‘lishi mumkin bo‘lgan g‘orga kirib, qolib ketadilar. Demak, bu o‘rinda folklor xronotopiga tayanib, voqyealar rivojiga yo‘l ochilgan. G‘orda o‘tkazilgan bir yil davomida aka-ukaning tashqi ko‘rinishi shunchalik o‘zgaradiki, ular insoniy qiyofasini yo‘qotadilar, ya’ni soch-soqoli, tirnoqlari o‘sib ketgani uchun ko‘rganlar aka-ukani jodugarlar deb o‘ylaydilar. Shu ta’qib tufayli Abu Ali Sino Misrga, Abulhoris Bag‘dodga ketib qoladi. Bu yerda Abu Ali Sinoni jallodlar tutmoqchi bo‘lishganda, u g‘orda o‘rgangan afsunini o‘qib, ta’qibchilarning qo‘llarini yelkasidan uzib tashlaydi va ko‘lmakka sho‘ng‘iydi. Abulhoris esa ko‘z ochib yumguncha cho‘qqiga ko‘tarilib, keyin bulutdek erib ketadi.

Shundan so‘ng asarda “Mo‘jizalarning davomi yoki Abulhoris va Bag‘dod podshosi haqidagi ertak” keltiriladi. Abulhoris qirq tayoqchaga jon solib, yetti kun ichida ular kuchi bilan g‘aroyib ulkan hammom qurib, podshoni hayratga soladi. Keyin podshoga Sabo yurti podshosining go‘zal qizini keltirib beradi. Shundan so‘ng Bag‘dod podshosi: “Dono bilan do‘st bo‘l, shunda o‘zing dono bo‘lasan, kuchlilar bilan do‘st bo‘l, o‘zing kuchli bo‘lasan!” maqoliga amal qilib, Abulhoris bilan do‘st tutinadi.

Asardagi keyingi qism “Ikkinchi ertak. Abu Ali Sino va Misr shohi” deb nomlangan. Misrda u bir go‘zal halvofurush savdogarning sevgilisi malikaga erishishi uchun sehr ilmi bilan yordam beradi. Shu o‘rinda quyidagicha chiroyli o‘xshatish va jonlantirish keltirilgan: “Kechqurun tajribali ovchidek bulutlarning tuzoqlarini yashirib, qora ro‘molga burkangan kampir-tun yulduzlar uchqunlarini ohista puflaganida, Abu-ali-sino halvofurush do‘koni ostonasida paydo bo‘ldi”. Abu Ali halvofurush yigit oldida “Holva bo‘l” so‘zidan somonni holvaga aylantiradi.

Abu Ali Sino hamma narsada - bilimda ham, mahoratda akasidan o‘zib ketgan edi. U halvofurushga ham ko‘zga ko‘rinmaslik sirini o‘rgatadi. Olim o‘ziga qarshi qo‘yilgan askarlarni maymun, echki kabi jonzotlarga evriltiradi.

Asardagi “Uchinchi ertak yoki Buxoro podshohlari va Abu Ali-sino haqidagi ertak” qismida Abu Ali Sino bir uy qurib sotadi. Sotib olgan odam bu yerda salqinlik yo‘q, pulimni qaytar deganida, Sino podsho saroyidan salqinlikni unga o‘tkazib beradi.

Asarda Abu Ali Sino Buxoroda turmush qurgan deb ko‘rsatilgan. Aslida bu fakt o‘z tasdig‘iga ega emas. Asarda uning xotini, barcha ayollar kabi, o‘jar, erining sirlarini maqtanchoqlik qilib, ko‘chaga chiqaradigan qilib tasvirlangan. Ayoli Sinoning podsho saroyidagi salqinlikni bir kishiga sotib yuborganini, eri ko‘p narsaga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qodir, juda aqlli va qobiliyatli ekanini gullab qo‘yadi. Bu gaplar podshohning xotiniga ham yetib boradi va u ham eshitganlarini eriga yetkazadi. Shunda podsho Sinoni huzuriga chaqiradi. Sino esa unga ayollarning gapiga quloq solish podshoga to‘g‘ri kelmasligini uqtirib, xijolat qiladi.

Asardagi “To‘rtinchi ertak yoki Kirmon va Abu Ali-sino podshohlari haqidagi ertak”da madaniyati, aql-zakovati bilan ajralib turadigan Kirmon podshohi Mahmudning bilimda saxovatli Abu Ali Sinoga oshiq bo‘lib, ulug‘ donishmand bilan uchrashishni orzu qilgani va ularning uchrashgani haqida so‘z yuritilgan. Abu Ali Sino Buxoroda yashagan Manjal (aslida Masihiy) degan mashhur tabib bilan Mahmudshoh huzuriga otlanadi. Manjal vazir ham edi. U Abu-ali-sinoni unchalik yoqtirmasdi va unga hasad qilardi. U yo‘lda ochlikdan va qaysarligidan o‘ladi.

Illatni jazosiz qoldirish Abu Ali Sinoning tabiatiga xos bo‘lmagan, shuning uchun u kim o‘ziga yomonlik qilsa, albatta, uni afsun orqali jazolagan. Buning tafsiloti asarda vazir Yuxna bilan Sino kurashi misolida ochib berilgan. Unda xalq ertaklaridagi kabi Yuxna xo‘rozga aylanadi va tariq donini cho‘qilay boshlaydi. Shunda Abu Ali Sino xuddi qizil tulkidek xo‘rozga hujum qiladi. Xo‘roz esa darhol tulkining changalidan bo‘shab, kaptardek osmonga uchib ketadi. Ammo kalxat kaptarning orqasidan yuguradi. Kabutar o‘rmonga kiradi, qirg‘iy uning orqasidan quvadi. Lochin kaptarga yetib boradi, kaptar o‘ziga najot yo‘qligini ko‘radi va vazir Yuxnaning qiyofasiga qaytadi. Abu Ali Sino ham o‘z qiyofasiga evriladi. Vazir Yuxna mag‘firat so‘rab donishmandga yuzlanadi va Abu Ali Sinoning qo‘lini olib, ular birga tinch-totuv suhbatlashib, Mahmudshoh saroyiga jo‘nab ketishadi. Yo‘lda kutilmaganda Abu Ali Sinoning qo‘ynidan birin-ketin turli hayvonlar chiqib keladi. U yana bir fasl o‘rniga boshqa faslni joriy etadi.

Asar “Oxirgi hikoya. Abu Ali Sinoning vafoti” qismi bilan yakunlanadi. Madhi Abu Ali Sino Hamadon shahri yaqinida, Obod qishlog‘ida dafn etilgan desa, Balxiy uning umri oxirida Buxoro davlatiga qaytib, Samarqandda to‘xtaganini aytadi. Uning Samarqandda madrasa va yonida “qayg‘u hammomi” nomli hammom qurdirganini ta’kidlaydi.

Abu Ali Sinoning bag‘dodlik juda iqtidorli, bilimdon Jamas ismli shogirdi bo‘lgani, uluh hakim o‘zining qayta tirilishini shu Jamaga ishonib topshirgani aytiladi. Ammo, Jamas shuhrat qozonishni orzu qilgani uchun ustozining tirilishini davom ettirmagani yoki yettinchi idishni ko‘tarib ketayotganida qoqilib, idish sinib, ustozini tiriltiruvchi moddani to‘kib qo‘ygani taxmin qilinadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ibn Sino asarlari tatarlar orasida keng tarqalgan, bu haqda xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyatlar, Abdulla To'qay va Naki Isanbetning xotiralaridan ham ko'rinadi. Ibn Sino siymosiga birinchi bo'lib tatar qomusiy olimlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Rizaetdin Faxretdin murojaat qilishgan. Ular o'rta asr mutafakkiri haqida ilmiy-ommabop maqolalar yozib, merosini ommalashtirganlar.

1940 yillarning oxirida Naki Isanbet Abugalisina obraziga murojaat qilgan. U tarixiy afsona janrida qo'g'irchoq teatri ssenariysini ishlab chiqqan va so'ng oradan o'n yil o'tgach, uni dramatik she'rga aylantirgan. Muallif ijodiy yondashuvining yangiligi shundan iboratki, u voqyealarni Misrdan Qadimgi Bulg'orlarga ko'chirgan, bosh qahramon nafaqat tabib va sehrigar, balki yirik davlat arbobi maqomini ham olgan.

1950 yillarda G.Lutfiy K.Nosiriy qissasini bolalar mutolaasiga moslashtirgan. N. Isanbetning she'ri jurnalda va kitob shaklida chop etilgan. 1970 yilda rejissyor P.Isanbet Tatar akademik teatri sahnasida N.Isanbet she'ri asosida sahnalashtirilgan spektaklni namoyish etgan.

XXI asrning birinchi choragida A.Axmetgaliyeva Qayum Nosiriy qissasini bolalar o'yiniga moslashtirgan. Natijada ikkita spektakl paydo bo'lgan: biri masal janrida (rejissyor Guzel Minkina), ikkinchisi musiqiy janrda rejissyor Aliya Faizrahmonova tomonidan.

Sino haqidagi ilk biografik asar Shahobiddin Marjoniy (1818-1989) qalamiga mansubdir [Shagaviyev. 4: 73-74]. U Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qiganida u haqda bilib olgan. Olim o'z asarlarida Ibn Sino haqida katta hurmat bilan gapiradi. Bunga uning “O'tmishdoshlar haqida batafsil ma'lumot va avlodlarga salom, 1883) kitobini, “Abu Gali Sino” nomli maxsus maqolasini misol keltirish mumkin. Unda Avitsennaning tarjimai holi birlamchi manbalar: Ibn Sinoning tarjimai holi va uning zamondoshlarining xotiralari asosida taqdim etilgan. Maqolaning oxirida Sh.Marjoniy o'rta asr mutafakkiri asarlarining bibliografiyasini ham taqdim etgan. Shu asosda u Ibn Sinoning ustozlari, shuningdek, shogirdlari nomini abadiylashtirgan. Ibn Sinoni Aristotel ta'limotining davomchisi va yunon faylasuflari merosini ommalashtiruvchi sifatida tavsiflagan.

Tatar adabiyotida Abugalisina obraziga ilk bor yozuvchi Qayum Nosiriy (1825-1902) murojaat qilgan. Uning 1872 yilda ilmiy inson bilimining qudratini fantastik shaklda tarannum etuvchi “Abu Gali Sino” asari nashr etilgan. Asarda Ibn Sino misolida “aql va axloqiy fazilatlarining boylik va oliyjanoblikdan ustunligi” ko'rsatilgan. Unda Sino sodiq do'st, “sehrli yordamchi” sifatida tasvirlangan. Asar

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

1881-1908 yillar orasida sakkiz marta qayta nashr etilgan. Ertakdan tashqari, Qayum Nosiriy “Ibn Sino” ilmiy-ommabop maqolasini ham yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyotida Abu Ali ibn Sino obrazi o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Bunda asosiy e’tibor olimning erksevar qiyofasini tasvirlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каюм Насыри. Татарский фольклор: Сказки. – Казань: Татарское книжное издательство, 1977.
2. Каюм Насыри. Абуғалисина. – Казань: Таткинигоиздат, 1957. – 60 с.
3. Хорижий мамлакатлар халқлари адабиёти (тожик адабиёти). – Душанбе, 2016. – 25 б.
4. Шагавиев Д.А. Маржоний Шихабетдин / Д.А. Шагавиев // Татарская энциклопедия. 6 том. Том 4. – Казань, 2008. – С.73–74.
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ibn-sino-uz>